

## ULOQSIZ TEMIR YO‘L UCHASTKALARIDA “PANDROL FASTCLIP” TIPIDAGI ORALIQ RELS MAHKAMLAGICHLARI

*Toshkent davlat transport universiteti (TDTrU)*

*Magistrant. J.T. Temirov*

*Magistrant. R.A. Bobomurodov*

*t.f.n., PhD A.Yu. Mamadaliyev*

**Kalit so‘zlar:** *Temir yo‘l izi, uloqsiz yo‘l, rels, temir-beton shpalalar, harakat tarkibidan tushayotgan yuk, Pandrol Fastclip tipli oraliq rels mahkamlagichlari.*

**Annotatsiya:** *Maqolada Pandrol Fastclip tipli oraliq rels mahkamlagichlarining ekspluatatsiya jarayonlarini uzaytirishda mavjud resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlaydigan, energiya tejankor va resurs tejankor texnologiyalarni joriy qilish yo‘li bilan ishlab chiqarish xarajatlari va ularning tannarxini izchil ravishda pasaytirib borishga katta e‘tibor qaratish yuzasidan olib boriladigan tadqiqot maqsad va vazifalari belgilanadi.*

**Key words:** *the trace of railway, unplugged way, rail, iron concrete sleepers, the luggage which is rolling from the content of the movement.*

**Abstract:** *The aim of the article is to focus on the gradual reduction of production costs and their cost through the introduction of energy-saving and resource-saving technologies that ensure the rational use of available resources to prolong the operation of Pandrol Fastclip type intermediate rail fasteners. and functions are defined.*

Bugungi kunda “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida tizimli ravishda ilg‘or temir yo‘l texnikalari bilan ta‘minlanib kelinmoqda. Tortishning yangi progressiv (ilg‘or) turlari keng joriy etilmoqda, poyezdlar tezligi ortib bormoqda. Ichki yo‘llarda harakat zichligi oshishi munosabati bilan yangi temir yo‘l

liniyalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va kapital ta'mirlash ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Temir-beton shpalalar va uloqsiz yo'l ustki inshootlari elementlarining eng ilg'or konstruksiyalari joriy etilmoqda.

Yo'l inshootlarini rivojlantirishning hozirgi bosqichi temir yo'lni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishning resursni tejovchi ilg'or texnologiyalari, yuqori mahsuldorlikdagi yo'l mashinalari, uloqsiz yo'lni o'z ichiga olgan samarali yo'l konstruksiyalarini joriy etishning tobora ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Uloqsiz yo'lning normal ishlashini va undagi poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash uloqsiz yo'lning pletlari(rels)ni yotqizishdan boshlanadi. Uloqsiz yo'lning mavjud dizayni, uni yotqizish va ishlatish usullari uning samaradorligini yanada oshirish uchun hali ham ko'p jihatdan takomillashtirilishi mumkin.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJning asosiy yo'llaridagi, shu jumladan tezyurar va yuqori tezlikdagi poyezdlar harakati uchastkalaridagi yo'lning ustki inshootning asosiy konstruksiyasi bo'lib uloqsiz yo'l, BF70 tipidagi temir-beton shpallar hamda Pandrol Fastclip tipli oraliq rels mahkamlagichlaridir (1-rasm). Ushbu rels mahkamlagichlarida elastik qisqichi mavjud bo'lib, u relsning asosini shpallarga bosadi. Mazkur bosim natijasida uloqsiz yo'llardagi poyezdlar harakati va ulardan tushayotgan yuk va harorat kuchlari ta'siridan mustahkam saqlanib turadi.



### **1-rasm. Pandrol Fastclip tipli oraliq rels mahkamlagichi**

Bugungi kunda Pandrol Fastclip tipli oraliq rels mahkamlagichlarining ekspluatatsiya jarayonlarini uzaytirishda mavjud resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan, energiya tejamkor va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy qilish yo'li bilan ishlab chiqarish xarajatlari va ularning tannarxini izchil ravishda pasaytirib borishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, izlanuvchi o'z oldiga quyidagi tadqiqot vazifalarini qo'yadi:

1. Tajriba uchastkalariga asos solish va tayanch yon izolyatorlari va Pandrol Fastclip tipli mahkamlagich klemmlarining yon izolyatorlari va oraliq izolyatorlari holatlarining monitoringini o'tkazish;
2. Mahkamlagich klemmlarining yon izolyatorlari hamda oraliq izolyatorlari nuqsonlari va shikastlanishlari klassifikatorini ishlab chiqish;
3. O'tkazilgan yuk hajmi o'sib borishi bilan mahkamlagich klemmlarining yon izolyatorlari hamda oraliq izolyatorlari nuqsonlari turlari bo'yicha shikastlanuvchanligining o'zgarib borishini (dinamikasini) baholash;
4. Pandrol Fastclip tipli mahkamlagich klemmlarining relslar tubiga barqaror (bir xil) bosim ko'rsatishini ta'minlash bilan bog'liq muammoning aniqlash;

5. Pandrol Fastclip tipli mahkamlagich klemmalari qayishqoqligini baholash uchun stend konstruksiyasini ishlab chiqish;

6. Temir yo‘ldan o‘tkazilgan yuklar tonnajining turli qiymatlari uchun bosh yo‘llar uchastkalaridan klemma namunalarini tanlab olish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Мирахмедов М.М. Основы методологии организации пескозакрепительных работ и защита производственно-технических объектов от песчаных заносов. –Ташкент: ТАСИ, 2008. -247с.

2. Мирахмедов М.М., Мамадалиев А.Ю. Объектларни кўчки кум босишидан ҳимоя қилишни методологик жиҳатлари // “Ўзбекистонда қурилиш технологияларининг ривожланиши” Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. 1 қисм, Тошкент: ТАСИ, 2015. С. 4-8.

3. Рельсовое скрепление для высокоскоростного пути  
<http://eav.ru/publ1.php?publid=2008-05a20>